

MUAMMOLI TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING PEDAGOGIK MODELII

Axmatova Shaxriniso Sodiqovna

SamDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasii

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muammoli ta'lim texnologiyasini o'quv jarayoniga joriy etishda o'qituvchi faoliyatining pedagogik modeli tahlil qilingan. Muammoli ta'limda o'qituvchining an'anaviy roldan fasilitator va moderatorlik pozitsiyasiga o'tishi, dars bosqichlarini modellashtirish hamda adabiyot darslari misolida ziddiyatli vaziyatlarni yaratish usullari yoritilgan. Maqolada o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik modelning tarkibiy qismlari va ularning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, pedagogik model, adabiyot darslari, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyat.

Abstract: This article analyzes the pedagogical model of a teacher's activity in implementing problem-based learning technology into the educational process. It examines the teacher's transition from a traditional role to the position of a facilitator and moderator, the modeling of lesson stages, and methods for creating problem situations using literature lessons as an example. The article substantiates the structural components of the pedagogical model and their effectiveness in developing students' critical thinking.

Keywords: problem-based learning, pedagogical model, facilitator, literature lessons, critical thinking, problem situation.

Bugungi globallashuv asrida yashar ekanmiz ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa – faqatgina tayyor bilimlar majmuasini o'quvchiga shunchaki uzatib qo'yish emas, balki ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Muammoli ta'lim texnologiyasi zamonaviy pedagogikada o'quvchining intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Biroq, ta'lim amaliyotida ko'pincha “muammoli vaziyat” yaratish va uni boshqarishda o'qituvchining aniq pedagogik modeli shakllanmaganligi ushbu metodning samarasini yanada pasaytirmoqda.

O'QITUVCHI FAOLIYATINING PEDAGOGIK MODELII

O'qituvchi muammoli ta'limni amalga oshirishda 3 bosqichli modeldan o'tishi lozim bo'ladi:

1-bosqich: Muammoni qo'yish orqali muammoli vaziyat yaratish

Bu orqali o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida zidlanish (o'rgangan va o'rganmoqchi bo'lgan bilimlar o'rtasida farq) ni keltirib chiqaradi.

O'qituvchi faoliyati: Qarama-qarshi fikrlarni ko'rsatish, o'rtaga savol qo'yish, amaliy topshiriqlarni bajarish imkonsizligiga o'rgatish.

2-bosqich: Muammoni tahlil qilish (izlanish olib borish) bosqichi

Bunda o'qituvchi o'quvchilarga faraz qilishni o'rgatadi.

O'qituvchi faoliyati: "Nima sababda?", "Nima uchun bunday bo'ldi?", "Agar shunday bolmasa-chi?" kabi savollar bilan o'quvchiga yuzlanish orqali ularni izlanishlar olib borishga chorlaydi.

3-bosqich: Yechim berish va xulosa chiqarish

O'quvchilar o'zlariga ma'qul topgan farazlarni isbotlab berish orqali mustaqil fikrlash faoliyati shakllanadi.

O'qituvchi faoliyati: O'rtaga qo'yilgan farazlarni tahlil qiladi. Uning to'g'ri yoki noto'g'riligi tahlil qilinadi.

Muammoli ta'limni tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchi faolligini quyidagicha shakllantirish mumkin.

- O'qituvchining xohishlarini hisobga olgan holda o'zlari taklif bergan o'quv vazifalarini inobatga olgan holda harakatlar rejasini qabul qilish.
- O'qituvchi o'quvchilar tomonidan qo'yilgan vazifalarni bajarish.
- O'qituvchi nazorati ostida o'z-o'zini nazorat qilish.
- O'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil tarzda o'quv faoliyati natijalarini tahlil etish.

O'qituvchining rahbarlik roli muammoli ta'limda ham muhim ahamiyat kasb etadi. aynan o'qituvchi o'quv materialiga o'quvchilarning umumiy va individual taraqqiyoti, egallagan bilim, ko'nikma, malakalari darajasi, qo'yilgan muammoning umumiy maqsadga qanchalik mosligidan kelib chiqib yondashadi.¹ Agar muammo haddan tashqari qiyin bo'lsa, o'quvchida motivatsiya yo'qoladi va u topshiriqdan voz kechadi. Agar juda oson bo'lsa, intellektual izlanish sodir bo'lmaydi. O'qituvchi aynan shu muvozanatni aniq belgilovchi boshqaruvchidir. O'qituvchi sinfdagi umumiy taraqqiyot darajasini ham, har bir o'quvchining individual potensialini ham parallel ravishda kuzatib boradi. U kuchli o'quvchilarga chuqurroq gipotezalar qurishni, nisbatan bo'shroq o'quvchilarga esa soddaroq yo'naltiruvchi savollar berish orqali yordam ko'rsatadi. Bu esa darsning tabaqalashgan xarakterini ta'minlaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchining xatosini to'g'ridan-to'g'ri aytish emas, balki izlanuvchan savollar zanjiri orqali o'quvchini o'z xatosini o'zi anglab yetishiga olib kelishdir. Bu jarayon o'qituvchidan yuksak improvizatsiya va fanlararo integratsiyani

¹ Q. Husanboyeva, R. Niyoz metova : Adabiyot o'qitish metodikasi.: "Barkamol fayz Media" nashriyoti, 2018-yil. 122-bet.

tushunishni talab qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning fikriy energetikasini bosh maqsadga tomon yo‘naltirib turuvchi "kompas" vazifasini bajaradi.

Muammoni bosib o‘tgan yo‘li:²

Muammoning turi	Muammoni keltirib chiqaradigan sabablari	Muammoning yechish yo‘llari va Sizning qadamingiz
Toza ichimlik suvining kamligi	Suvni toza saqlashga e‘tiborning kamligi	Tabiat va suvni saqlashga oid tadbirlar o‘tkazish
...

Muhokama jarayonida muammoli ta‘lim tizimining eng muhim jihatlaridan biri sifatida “bilish” va “uddalash” o‘rtasidagi uzviylik alohida ta‘kidlanadi.³ Muammoli ta‘lim tizimida “bilish” va “uddalash” tushunchalari alohida elementlar emas, balki bir-birini taqozo etuvchi yaxlit zanjirning ikki bo‘g‘inidir. An‘anaviy ta‘lim modeli uzoq vaqt davomida “bilish” bosqichini yuqori cho‘qqi deb bildi. Biroq bugungi axborot asrida har qanday faktik ma‘lumot soniyalar ichida topilishi mumkin bo‘lgan bir sharoitda, faqatgina bilishning qadri keskin pasaydi. Muammoli ta‘lim aynan shu inqirozga yechim sifatida namoyon bo‘ladi. Unda bilim o‘z-o‘zidan maqsad emas, balki muammoni hal qilish quroli vazifasini o‘taydi. Talaba aniq bir ziddiyatli vaziyatga (keysga) duch kelganda, uning ongida "bu muammoni hal qilish uchun menga qaysi bilim yetishmayapti?" degan savol tug‘iladi. Natijada bilim olish jarayoni majburiy yodlashdan ichki ehtiyojga aylanadi.

Muammoli ta‘limni amalga oshirishda o‘qituvchi va o‘quvchi faolligini quyidagicha ko‘rishimiz mumkin:

O‘qituvchi	O‘quvchi
O‘quvchilar tomonidan vazifa qo‘yiladi va muhokama tashkil etadi. Muammoni hal etish bosqichida o‘rtaga qo‘yilgan variantlarning qanchalik to‘g‘ri yoki notog‘ri ekanligini isbotlashni taklif etadi. O‘quvchilardan o‘zlari o‘zlashtirgan bilimlari haqida xulosalashni o‘rgatadi. Xulosalar yetarli bo‘lmaganda yoki xato bo‘lganda uni qayta tahlil qilishga chorlaydi. Muammoni hal etishda tahlildan	O‘quvchilar berilgan vazifalar qabul qiladi. Muammoni yechish uchun izlanishlar olib boradi. Masalani yechish uchun har bir o‘quvchi o‘z fikrini aytadi. Fikrlar ichidan eng ma‘qul variantlar olinadi. Yangi o‘zlashtirgan bilimlarini xulosalab umumlashtiradi. Muammoni to‘g‘ri hal etish yo‘llarini izlab topadi. Shu tarzda muammoli vaziyatni hal etishga yo‘l ochiladi. Mavzu atrofida soda va lo‘nda

² Q. Husanboyeva, R. Niyoz metova : Adabiyot o‘qitish metodikasi.: “Barkamol fayz Media” nashriyoti, 2018-yil. 122-bet.

https://www.researchgate.net/publication/402631494_TARBIYAVIY_MUAMMOLI_TA'LIM_TIZIMINING_TA'LIM_IY_TARBIYAVIY_VA_RIVOJLANTIRUVCHI_VAZIFALARI

<p>olingan natijalar umumlashtiriladi. O'qituvchi faollikni rag'batlaydi. Kamchiliklar muhokamasi natijasida ko'zlangan maqsadga erishiladi. Olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida turli savollar o'rta tashlanadi. Egallangan bilimlarni amalda qo'llash taklif etadi.</p>	<p>tarzda berilganlari olinadi. Xulosalar ma'qul kelmagan holatda o'quvchi o'zini o'zi qayta nazorat etish orqali yangi mavzudagi bilimlarni mustahkamlaydi. Egallangan bilimlarni amalda qo'llash uchun topshiriqlar bajarish taklif etadi.</p>
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Muammoli ta'limda pedagogning faoliyatini baholashda quyidagi uch xususiyatga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi:

- Guruhlarda ishlatish – o'quvchilar o'zlari ustida ishlash uchun kichik guruhlar tuzadi. Ular muammoni guruhda hal qilish tajribasiga ega bo'ladi. Bu esa ularda muloqot qobiliyati va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi.
- Topshiriqlarni hayotiy o'qitish – o'rganish jarayonida ko'pgina topshiriqlar amaliy vaziyatlarga asoslangan bo'lib, ular o'quvchiga haqiqat hissini beradi va o'rganishni osonlashtiradi.
- O'zini nazorat qildirish olish – o'z-o'zini o'rganish. Muammolarni to'plash, ularni hal qilish, va o'quvchilarga etkazish uchun kerakli materiallar va adabiyotlarni to'plash faol va mustaqil o'rganishni talab etadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, muammoli ta'lim modelini keng joriy etish uchun pedagoglar nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki psixologik-pedagogik diagnostika usullarini ham egallashlari lozim. Bu o'quvchilarni o'qituvchi bilan yaqindan rivojlanishga mos keladigan muammolarni to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmutov M.I. Muammoli ta'lim: nazariya va amaliyotning dolzarb masalalari. – Moskva: Pedagogika, 1975.
2. Q. Husanboyeva, R. Niyoz metova : Adabiyot o'qitish metodikasi.: "Barkamol fayzMedia" nashriyoti, 2018-yil. 122-bet.
3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 332 b.
4. Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Ўзбек адабиётини ўқитиш методикаси. –Т.: Тафаккур, 2022. –164 б.
5. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. –Тошкент: "Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси" нашриёти, 2004.–142 б.
6. www.zivo.com.kutubxonasi.
7. https://www.researchgate.net/publication/402631494_TARBIYAVIY_MUAMMOLI_TA'LIM_TIZIMINING_TA'LIMIY_TARBIYAVIY_VA_RIVOJLANTIRUVCHI_VAZIFALARI